

## BYUDJET-SOLIQ TIZIMINI RIVOJLANTIRISHNING USTUVOR YO'NALISHLARI

*Eshboyev Sarvar,  
Abdullayev Rasul,  
Saydullayev Sardor  
MMT-94 guruh talabalari*

**Annotatsiya:** ushbu maqolada iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida byudjet-soliq tizimining o'rni va mohiyati, shuningdek ushbu tizimda olib borilayotgan islohotlar hamda davlatga tushumlar dinamikasi keltirilgan. Byudjet-soliq tizimida qabul qilingan qarorlar, amalga oshirilayotgan islohotlar haqida so'z yuritilgan.

**Kalit so'zlar:** byudjet-soliq tizimi, davlat, byudjet, soliqlar, davlat xarajatlari va daromadlari.

Iqtisodiyotni erkinlashtirish sharoitida soliqlar mamlakatimiz ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining asosiy omillaridan biri sifatida yuzaga chiqmoqda. Soliq tizimi haqida gap borganda ko'pincha uning barqaror yoki nobarqaror ekanligi ta'kidlanadi. Soliq tizimining barqaror yoki nobarqarorligi bir tomondan davlat budgetini daromad manbasini shakllantirish, ikkinchi tomondan soliq yuki xo'jalik yurituvchi subyektlarning tadbirkorlik faoliyatini cheklab qo'ymasligi zaruriyati bilan belgilanadi.

Har bir mamlakatda ishlab chiqilib, hayotga tatbiq etilishi lozim bo'lgan byudjet-soliq siyosatining mazmun-mohiyati va uning yo'nalishlarini eng avvalo, shu mamlakatda bozor munosabatlarini shakllantirishda uning qanday modeliga tayanilgani (asoslanganligi) belgilab beradi.

Mamlakatimizni 2017 — 2021-yillarda rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi doirasida o'tgan davr mobaynida davlat va jamiyat hayotining barcha sohalarini tubdan isloh etishga qaratilgan 300 ga yaqin qonun, 4 mingdan ziyod O'zbekiston Respublikasi Prezidenti qarorlari qabul qilindi.

Shuningdek, inson huquqlarini ta'minlash, davlat organlarining hisobdorligi va ochiqligini kuchaytirish hamda fuqarolik jamiyati institutlari, ommaviy axborot vositalarining roli, aholi va jamoat birlashmalarining siyosiy faolligini oshirish bo'yicha tizimli ishlar amalga oshirildi.

Milliy iqtisodiyotni isloh qilish borasida tashqi savdo, soliq va moliya siyosatini liberalallashtirish, tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash va xususiy mulk daxlsizligini kafolatlash, qishloq xo'jaligi mahsulotlarini chuqr qayta ishlashni tashkil etish hamda hududlarni jadal rivojlantirishni ta'minlash bo'yicha ta'sirchan choralar ko'rildi.

Fuqarolarning ijtimoiy himoyasini kuchaytirish va kambag‘allikni qisqartirish davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishi sifatida belgilanib, aholini yangi ish o‘rinlari va kafolatli daromad manbai, malakali tibbiy va ta’lim xizmatlari, munosib yashash sharoitlari bilan ta’minalash sifat jihatidan yangi bosqichga ko‘tarildi.

So‘nggi besh yillik islohotlarning natijasida mamlakatimizda Yangi O‘zbekistonni barpo etishning zarur siyosiy-huquqiy, ijtimoiy-iqtisodiy va ilmiy-ma’rifiy asoslari yaratildi.

Jahon miqyosidagi murakkab jarayonlarni va mamlakatimiz bosib o‘tgan taraqqiyot natijalarini chuqur tahlil qilgan holda keyingi yillarda “Inson qadri uchun” tamoyili asosida xalqimizning farovonligini yanada oshirish, iqtisodiyot tarmoqlarini transformatsiya qilish va tadbirkorlikni jadal rivojlantirish, inson huquqlari va manfaatlarini so‘zsiz ta’minalash hamda faol fuqarolik jamiyatini shakllantirishga qaratilgan islohotlarning ustuvor yo‘nalishlarini belgilash maqsadida “Harakatlar strategiyasidan — Taraqqiyot strategiyasi sari” tamoyiliga asosan ishlab chiqilgan quyidagi yetta ustuvor yo‘nalishdan iborat 2022 — 2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi va uni “Inson qadrini ulug‘lash va faol mahalla yili”da amalga oshirishga oid davlat dasturi qabul qilindi<sup>1</sup>:

- inson qadrini yuksaltirish va erkin fuqarolik jamiyatini yanada rivojlantirish orqali xalqparvar davlat barpo etish;
- mamlakatimizda adolat va qonun ustuvorligi tamoyillarini taraqqiyotning eng asosiy va zarur shartiga aylantirish;
- milliy iqtisodiyotni jadal rivojlantirish va yuqori o‘sish sur’atlarini ta’minalash;
- adolatlari ijtimoiy siyosat yuritish, inson kapitalini rivojlantirish;
- ma’naviy taraqqiyotni ta’minalash va sohani yangi bosqichga olib chiqish;
- milliy manfaatlardan kelib chiqqan holda umumbashariy muammolarga yondashish;
- mamlakatimiz xavfsizligi va mudofaa salohiyatini kuchaytirish, ochiq, pragmatik va faol tashqi siyosat olib borish.

Mamlakatimizda o’tkazilayotgan soliq islohotlarining amaliy natijasi asosan harakatdagi soliqlarni soddalashtirish va unifikatsiya qilish, xo‘jalik yurituvchi sub’ektlarning davlat byudjeti bilan hisob-kitoblari mexanizmini takomillashtirish, soliq hisobotlarini taqdim etish holatlarini kamaytirishga qaratilgan. Respublikamiz hukumati tomonidan olib borilayotgan soliq siyosatining asosiy yo‘nalishlari yuridik va jismoniy shaxslar zimmasidagi soliq yukini kamaytirishga, soliqqa tortish tizimini soddalashtirishga, soliqqa tortiladigan ob’ektlarni maqbul darajada kamaytirishga qaratilganligi bilan ahamiyatli hisoblanadi.

<sup>1</sup> O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 28.01.2022 yildagi PF-60-son


Mustaqil soliq tizimini shakllantirish borasidagi tadbirlar boshlangandan shu kunga qadar bosqichma-bosqich keng ko'lamli islohotlar amalga oshirildiki, bugungi kunga kelib ushbu islohotlarning samarasi o'laroq, nisbatan barqaror soliq tizimi muayyan darajada shakllantirildi. Ammo, mazkur jarayon muayyan qiyinchilik va qulayliklar asosida yuz berayotganligini e'tirof etish lozim.

Hozirda soliqqa tortish bo'yicha amalga oshirilayotgan izlanishlarning aksariyat qismi yuridik shaxslardan undiriladigan soliqlarga bag'ishlangan bo'lib, jismoniy shaxslar to'laydigan soliqlarni alohida chuqur o'rganishga bag'ishlangan tadqiqotlarni sezilarli deb bo'lmaydi. Xususan, jismoniy shaxslar to'laydigan mol-mulk va yer soliqlari byudjet tizimida katta salmoqqa ega bo'lmasada, ammo, soliq tizimida alohida ahamiyatga egadir.

Soliq siyosati davlatning soliq munosabatlarini tashkil qilishdagi chora-tadbirlari, faoliyatlar yig'indisidir. Shunday ekan, faqat mustaqil davlatgina o'z mustaqil soliq siyosatiga ega bo'la oladi.

Soliq siyosatini ishlab chiqish moliya-iqtisodiy munosabatlardan kelib chiqadi. Davlat soliq siyosati orqali respublika iqtisodiyotini barqarorlashtirish va rivojlanishiga xar tomonlama faol ta'sir ko'rsatish mumkin. Soliqlar pul munosabatlari bo'lib, iqtisodiy munosabatlarning tarkibiy qismi ekan, soliq siyosati xam iqtisodiy siyosatning tarkibiy qismidir.

Mamlakatimiz budget-soliq siyosatida amalga oshirilayotgan tub islohotlar respublika iqtisodiyotini rivojlanishi bilan chambarchas bog'liq bo'lib, bunda soliq yuki darajasining kamayib borishi iqtisodiy salohiyatning yildan-yilga o'sib borishiga bevosita ta'sir ko'rsatuvchi omil hisoblanadi. Respublikada soliqdan tushayotgan tushumlar ulushini quyidagi 1-rasmdan kuzatish mumkin.



**1-rasm. 2023-yil davomida byudjetga tushumlar ulushi<sup>2</sup>**

<sup>2</sup> <https://www.soliq.uz/press-services>


Bozor munosabatlarning shakllanishi va rivojlanishi sharoitida aynan soliqlar davlatning iqtisodiyotiga ta'sir o'tkazishdan asosiy vositalardan biri bo'lib qolmoqda.

Davlatning asosiy vazifalaridan biri iqtisodiyotni barqarorlashtirish hisoblanadi. Bunday barqarorlashtirishga monetar siyosat bilan birga byudjet-soliq siyosati orqali ham erishiladi. Byudjet-soliq siyosati deganda noinflyatsion YAIM ishlab chiqarish sharoitida iqtisodiyotda to`liq bandlilikni, to`lov balansining muvozanatini va iqtisodiy o`sishni ta`minlashga qaratilgan davlat xarajatlari va soliqlarini o`zgartirishni o`z ichiga olgan chora tadbirlar tushuniladi. Iqtisodiyot turg`unlik yoki pasayish davrida bo`lgan vaziyatlarda davlat tomonidan rag`batlantuvchi byudjet-soliq siyosat - fiskal ekspansiya olib boriladi. Ya`ni, davlat qisqa muddatda iqsodiyotning pasayishi muammosini davlat xarajatlarini oshirish yoki soliqlarni kamaytirish, yohud ikkalasini bir vaqtning o`zida olib borish evaziga hal etadi. Uzoq muddatda davlat xarajatlarining yuqori bo`lishi va soliqlarni kamaytirish ishlab chiqarish omillarining o`sishiga va natijada, iqtisodiy salohiyatning ko`tarilishiga olib kelishi mumkin. Ammo, bunga Markaziy bank tomonidan olib boriladigan pul-kredit siyosatidan samarali foydalanish va davlat xarajatlari tarkibini maqbul holatga olib kelish orqaligina erishish mumkin.

Iqtisodiyotda to`liq bandlik va ortiqcha talab natijasida inflyatsiya kelib chiqishi mumkin bo`lgan vaziyatlarda cheklovchi byudjet-soliq siyosat- fiskal restriksiya olib boriladi. Cheklovchi byudjet-soliq siyosat davlat xarajatlarini (G) kamaytirish yoki soliqlarni (T) oshirish yoki bo`lmasa ikkala tadbirni bir vaqtda olib borish orqali iqtisodiyotning davriy o`sishini chegaralashdan iborat. Qisqa muddatli davrlarda ushbu tadbirlar talab inflyatsiyasini kamaytiradi. Uzoq muddatli davrlarda esa yuqori soliqlar iqtisodiyotda stagnatsiyaga olib kelishi mumkin. Bu esa mamlakatning iqtisodiy salohiyatini izdan chiqaradi. Bunga davlat xarajatlaridan samarasiz foydalanish qo`shimcha turtki bo`lishi mumkin. Agar davlat xarajatlari va avtonom soliqlar bir xil miqdorga ko`paysa muvozanatli ishlab chiqarish hajmi shu miqdorga teng yoki undan kamroq summaga ko`payadi.

Davlat xarajatlari o`zgarishidan yuzaga keladigan samara soliqlar pasayishidan olinadigan samaradan kattaroq bo`ladi. Bu holat davlat xarajatlarining daromadlar va is`temol hajmiga ta`siri soliqlar o`zgarishi ta`siriga nisbatan kuchliroq ekanligi oqibatidir. Ushbu farq byudjet-soliq siyosat vositalarini tanlashda muhim rol o`ynaydi.

2023 yil davomida budjetga tushumlar (mlrd.so'm)

2-rasm. 2023-yil davomida byudjetga tushumlar(mlrd.so'm)<sup>3</sup>

Ushbu grafikdan ko'rish mumkinki, byudjetga tushumlarning asosiy qismini bevosita soliqlar tashkil qilmoqda. Bizga ma'lumki bevosita soliqlarga egri soliqlar ya'ni aksiz solig'i, qo'shilgan qiymat solig'i va boshqa soliqlar tashkil qiladi.

Davlatning barqaror kuchli iqtisodiy-ijtimoiy siyosat olib borganligi yoki nufuzi bir nechta omillar jumladan, uning jamiyat ishtirokchilari, ya'ni xalqining moddiy va ma'naviy to'liq ta'minlanganligi, ijtimoiy himoyalanganligi, xususiy sektor salmog'ining yuqoriligi, iqtisodiyotda xususiy mulkka egalik huquqining yuqori ko'rsatkichi, iqtisodiyotni erkinlashtirilganligi hamda birga barcha sohalar adolatli huquqiy himoyalanganligidan nishonadir. Soliq siyosati to'g'ri olib borilishi natijasida Davlat va mahalliy byudjetlar etarli darajada moliyaviy manbaga ega bo'ladi, bu esa mamlakat milliy iqtisodiyotining hamma sohalarida foydalanish imkoniyatini yaratadi, mahsulot ishlab chiqarish hajmini oshishiga sabab bo'ladi.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

- Маликов Т.С. Бюджет-солик сиёсати. Ўқув қўлланма – Т.: Iqtisod-moliya, 2019. – 376 б.
- TS Malikov, O Olimjonov. Moliya. - О'кув оқо'llanma. Т.:“Iqtisod-moliya, 2012
- Malikov TS. Moliya. О 'кув оқо'llanma. Toshkent: Iqtisod-moliya. 2018.
- Malikov TS, Moliya HN. umumdavlat moliyasi./O'kuv qo'llanma. Toshkent:“Iqtisod-moliya. 2009;556.

<sup>3</sup> <https://www.soliq.uz/press-services/news>

5. O'roqov U. Y., Anvarov N. M. Mamlakat iqtisodiyotini rivojlantirishda byudjet-soliq siyosatining ahamiyati //BARQARORLIK VA YETAKCHI TADQIQOTLAR ONLAYN ILMIY JURNALI. – 2022. – С. 466-471.
6. lex.uz
7. soliq.uz

Н

9. Malikov T, Haydarov N. Budjet daromadlari va xarajatlari. O'quv qo'llanma, Т

Т

10. Malikov TS. Byudjet-soliq siyosati. Т.:“Iqtisod-moliya. 2019.

11. Malikov T, Haydarov N. Budjet: tizimi, tuzilmasi, jarayoni. O'quv qo'llanma, Toshkent “IQTISOD-MOLIYA. 2008.

е

12. У Ўроқов. Маҳаллий бюджетлар мустақиллигини оширишнинг устувор йи

й

13. У Ўроқов, Д Ускенбаева. Ўзбекистонда ташаббусли бюджетни жорий Э

Э

14. Ўроқов У, Иргашев И, Ғайбуллаев О. Фуқаролар иштирокидаги маҳаллий бюджет. 2022

и

15. Ўроқов УЮ. Маҳаллий бюджетлар шаффоғлиги ва очиқлигини таъминлашнинг устувор йўналишлари. Бизнес-Эксперт журнали. 2020;4.

и

16. Ўроқов У. Маҳаллий бюджетлар молиявий барқарорлигини белгиловчи кўрсаткичлар. 2020

и

17. Ўроқов У. Маҳаллий бюджетлар даромад базасини кенгайтириш масалалари. Республика ўқув юртларо конференция тўплами. ТМИ-2009 йил (Vol. 18).

ш

18. Ўроқов У. Маҳаллий бюджетлар молиявий мустақилигини оширишнинг замонавий муаммолари. Халқаро илмий-амалий анжуман материаллари тўплами. ТМИ 2022 йил.

и

19. У Ўроқов. Маҳаллий бюджетлар молиявий мустақиллигини оширишнинг ҳ

ҳ

20. G'aybullayev O, O'roqov U. O'zbekiston Respublikasida budjet tizimi va jarayoni. O'quv qo'llanma. Т.: Baktriapress. 2016;168.

и

и

22. Хайдаров НХ. Маҳаллий бюджетлар: муаммо ва инновацион ечимлар. “Ўзбекистон статистика ахборотномаси” илмий электрон журнал. 2020.

и

23. Хайдаров Н. Доходы местных бюджетов и пути их укрепления.“Молия” илмий журнал. 2022.

и

и

и

и

и

и

и



24. Xайдаров Н. Маҳаллий бюджетларнинг даромад манбалари. халқаро илмий-амалий конференция 2022.
25. Xайдаров Н. Маҳаллий бюджетлар даромадини барқарорлаштириш йўллари. халқаро илмий-амалий конференция мақолалар тўплами (Vol. 2022).
26. O'roqov U. Y., qizi Rahimova N. J. Investitsiyalarni jalb qilishda qulay investitsiya muhitining ahamiyati //RESEARCH AND EDUCATION. – 2022. – T. 1. – №. 3. – C. 229-239.
27. Dilmurod o'g'li, Fayzullayev Abdusamad, and Rahimova Nozimaxon Jahongirovna. "O'ZBEKISTONDA YASHIL IQTISODIYOTNING RIVOJLANISHI VA ATROF-MUHITGA TA'SIRI." International journal of
28. Vohidjonovich B. N., Jahongirovna R. N. RIVOJLANAYOTGAN MAMLAKATLARDA KAMBAG'ALLIK MUAMMOSI //ILM-FAN YANGILIKLARI KONFERENSIYASI. – 2024. – T. 2. – №. 1. – C. 20-21. subyektlari //Science and Education. – 2022. – T. 3. – №. 12. – C. 934-940.
30. Gulshoda B., Nozimaxon R. IQTISODIYOTNI MODERNIZATSİYALASH SHAROITIDA BYUDJET-SOLIQ TİZIMINI RIVOJLANTIRISHNING USTUVOR YO'NALISHLARI //ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ. – 2024. – T. 44. – №. 2. – C. 178-183.